

## AMIR TEMUR VA "TEMUR TUZUKLARI" HAQIDA

**Mahmudov Xudoyberdib Alisher o'g'li**

**Allamurodov Akbar Ravshan o'g'li**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 2-bosqich tarix yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** Amir Temur shaxsini idrok etish–tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash–o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash–tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

**Kalit so'zlar:** Amir temur, Ko'ragoniy, Temur tuzuklari, "Tuzukoti Temuriy", "Malfuzoti Temuriy", "Qissai Temur", "Temur qissasi", "Zafar yo'li", "Tarjimai hol"

**АННОТАЦИЯ:** Понять личность Амира Темура означает понять историю. Понять Амира Темура значит понять нашу идентичность. Прославление Амира Темура означает укрепление нашего великого будущего и уверенности, основанной на наших корнях, культуре и могуществе, которые глубоко уходят корнями в глубины истории.

**Ключевые слова:** Амир Темура, Корагони, тузуклари Темура, «Тузукоти Темури», «Малфузоти Темури», «Киссай Темура», «История Темура», «Путь к победе», «Биография».

**Abstract:** Understanding the personality of Amir Temur means understanding history. To understand Amir Temur means to understand our identity. Glorifying Amir Temur means strengthening our great future and confidence, based on our roots, culture, and power, which are deeply rooted in the depths of history.

**Key words:** Amir Temur, Koragoni, Temur's tuzuklari, "Tuzukoti Temuri", "Malfuzoti Temuri", "Kissai Temur", "Temur's story", "The road to victory", "Biography"

Amir Temur Ko'ragon tarix maydonida javlon urgan jahonshumul siymolardan biridir. Biz uning tarixiga, favqulodda shaxsiga, avlodlari faoliyatiga qayta-qayta murojaat qilaveramiz. Tarixga yuz burib, qaysi yo'llardan yurmaylik, qachon bo'lmasin, qayerda bo'lmasin, yo'limiz aylanib baribir ushbu mo'tabar zot huzuriga olib kelaveradi. O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil 18-oktabrda Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan otashin nutqida bunday degan edi: «Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!» Bebaho so'zlar! Takror ta'kidlash joizki, Amir Temurni bizga qaytarib bergan, bu borada hormay-tolmay hakni qaror toptirgan zot Prezident Islom Karimov bo'ladi. Ushbu ulug' xizmatlari uchun xalqimiz undan

behad minnatdordir. Vaqtlar keladiki, avlodlar hali sohibqiron Amir Temur hayotining har bir kunini, har bir lahzasini bitta ham qoldirmay chuqur o'rganib chiqadilar. Bunga birov majbur etmaydi, balki bu ko'ngil ehtiyoji, hayot zaruratiga aylanadi.

Sohibqironning suronli davrini anglab yetishda u hakda yozilgan va yozilayotgan asarlarning ahamiyati benihoya kattadir. Bu borada, ayniqsa, bevosita uning nomi bilan bog'liq, uning o'zi qog'ozga tushirgan "Tuzuklar"- ning bebaho manba ekanligi kundan ham ravshan. Ushbu yodgorlik Amir Temur shaxsiyati va uning davri hakida, davlat tuzilishi va saltanat yuritish xususida, o'sha davr obi havosi, umuman odamlar aro munosabatlar to'g'risida keng tasavvur bera oladigan noyob durdona asardir. Amir Temur saltanati, ta'bir joyiz esa, Sohibqironning ijodi edi, ana shu saltanat bobomizning mashaqqatli mehnati bilan bo'y ko'rgizdi, uning qonunlari hayotiy zarurat yuzasidan dunyoga keldi, "Temur tuzuklari" esa barchasining yorqin ifodasi sifatida paydo bo'ldi. Ha, chindan ham "Temur tuzuklari" zamon zarurati va talabi bilan yaratilgandir. Buni albatta saltanat tuzgan, davlat boshqarish zahmatlarini o'z boshidan kechirib, bu borada ulkan tajribalar orttirgan, mashhur muarrix Nizomiddin Shomiy so'zi bilan aytganda, "kamolotu martabalarga o'zining yetuk sa'y-harakati va jiddu jahdi bilan erishgan" Amir Temur singari odamgina yoza oladi, bu hakda kitob yozish shunday odamninggina qo'lidan keladi. Bu yerda shubha bo'lishi mumkin emas. "Temur tuzuklari"ni mutolaa qilganda, uning muallifi nechog'lik yuksak ma'naviyat sohibi ekanligining shohidi bo'lamiz.

Ushbu nodir asar munosabati bilan tadqiqotlar olib borishgan olimlarimizning bildirgan o'rinli mulohazalarini e'tiborga olgan holda, asarning asl turkiy nusxasini izlab topish, keyinchalik ko'chirishda kotiblar tomonidan kiritilgan "tahrir"lardan tozalash, "Temur tuzuklari", "Tuzuki Temuriy", "Tuzukoti Temuriy", "Malfuzoti Temuriy", "Qissai Temur", "Temur qissasi", "Zafar yo'li", "Tarjimai hol" kabi turlicha nomlanib kelayotgan nusxalarni bir-biriga muqoyasa etib, asarning tanqidiy matnini yaratish temurshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmokda.

Amir Temurning tarixiy asarlar va ularning yozilishiga munosabati, haqqoniy bo'lishiga talabchanligi tahsinlarga loyiqdir. Bu katta bilimga ega bo'lgan, donishmand va zukko insonning munosabatidir. Shu jihatlarga nazar qilganda ko'z oldimizda donishmand, zakiy inson, teran hayotiy tajriba sohibi bo'lgan, kelajak avlodlarni o'ylagan, ona yurt, mulku millat uchun kuyib-yongan zahmatkash inson siymosi turadi.

Ma'lumki, Amir Temur milodiy 1401 yilning 11 avgustida Nizomiddin Shomiyni o'z huzuriga chaqirtiradi. Tarixchi bu hakda shunday yozadi: "...Garchi ul

zot qilgan ishlarining bu abadiyatga ulangur davlatning boshlanishidan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan tarixini onhazrat uchun yozgan bo'lsalar ham, ammo ular (ular, chamasi, anchagina bor, ular ichida "Tuzuklar" ham bo'lishi mumkin, lekin, afsuski, tarixchi o'zi foydalangan asarlardan birortasining ham nomini keltirmaydi – M.A.) hali munosib tarzda jamlanib, takdim etilmagan ekan; bu banda ularni yig'ib, ortiqcha so'zlardan tozalab, bob-bob qilib tartib berishga mashg'ul bulg'aymen, lekin shu shart bilanki, takallufu bezak berish, lof urish ziynatidan o'zimni tiygaymen..."<sup>[1]</sup>

Bu yerda Sohibqironning o'zi va saltanati borasida yozilajak asarga munosabati, asar qanday yozilishi haqida tasavvuri juda ravshan, talabi esa yuksak ekanligi ayon bo'lmokda. Ya'ni, Sohibqiron davlati tarixi yozilganda ortiqcha takalluflarga, lofu maktovlarga o'rin bo'lmasligi kerak... Hamma narsa faqat haqqoniy yozilsin... Shomiy Sohibqiron so'zlarini qo'llab-quvvatlab: "Yaxshi va ravon so'z uldirkim, avom xalq uning ma'nosini anglagay, xos kishilar unga ayb qo'ymag'ay.." deydi. Sohibqiron bilan muarrixning fikrlari bir joydan chiqadi. Amir Temurning: "Men ana shundoq so'zni xohlaymen!"<sup>[2]</sup> deya ma'qullashi bag'oyat ibratlidir.

Muarrixga, nima uchun asar sodda yozilishi kerakligini tushuntirganda Sohibqiron, uning jimjimadorlikdan holi, sodda bo'lishini, chunki u keng avom, xalk uchun bitilishini, ko'pchilik tomonidan o'qilishini nazarda tutadi: "Shu uslubda yozilgan, tashbih va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtada yo'qolib ketadi, – deydi Amir Temur. – Agar so'z qoida-qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nisini fahmlab qolsa qolar, ammo qolgan o'ntasi, balki yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga yetishdan o'jiz. Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi..."<sup>[3]</sup> Bu so'zlar Amir Temurning umuman kitob ahamiyatini, ilmni, tarixni qanchalar qadriga yetishini, chuqur anglashini ko'rsatib turibdi.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si Sohibqiron va uning davlati haqida bevosita Amir Temur topshirig'i bilan yozilgan qutlug' ikki kitobning biri edi, birinchisi G'iyosiddin Alining "Hindiston g'azavoti kundaligi" hisoblanadi. Har ikki kitob ham Amir Temurning nazaridan o'tgan va ma'qullanganligi ma'lum. G'iyosiddin Alining yozishicha, ushbu birinchi kitobning bitilishi hakida Humoyun o'rdudan maxsus farmon chiqqan bo'lib, unda tarix uchun jahongirning zafarli yurishlaridan ayrimlari ta'riflanishi, keyin Hindiston yurishi tasvirlanishi lozimligi aytiladi. O'shanda ham G'iyosiddin Ali oldiga uslubda balandparvoqlikka berilmay, sodda, hamma tushunadigan tilda yozish shart qilib qo'yiladi..."<sup>[4]</sup>

"So'z qoida-qonuni" hakida teran fikr yuritgan Amir Temur bevosita o'zi kitob yozganda bunga kat'iy amal qiladi va shunday qat'iyat bilan "Tuzuklar" inshosiga kirishadi. Shuni aytish lozimki, asar uzoq yillar davomida qog'ozga tushirilgan, vaqt

o'tishi bilan boshlangan matnga qaytilgan, qisqartirilgan, to'ldirilgan, yana davom etdirilganday taassurot qoldiradi kishida. Arab olimi Mazhar Shihobning quyidagi: "Esdaliklar yozishni Amir Temur hokimiyatga kelishidan ancha muddat oldin boshlagan.." [5] degan so'zlarida jon bor ko'rinadi.

Ehtimol, Sohibqiron o'zi va saltanati tarixini, to'ra- tuzuklarni kog'ozga tushirishni birovga topshirishni istamagan yoki biron kishini shunga munosib ko'rmagan... O'xshash vaziyat keyinrok mashhur davlat arbobi va muarrix Abulg'oziy Bahodirxon bilan ham yuz bergan edi, u millat uchun bag'oyat muhim "Shajarayi turk" asarini o'zi yozishga majbur bo'lgan edi. Bu hakda Abulg'oziy asar so'zboshisida shunday so'zlarni keltiradi: "Bu tarixni (ya'ni, "Shajarayi turk" nazarda tutilmoqda – M.A.) bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk. Hech munosib kishi topmaduk. Zarur bo'ldi. Ul sababdin o'zimiz aytduk. Turkning masali turur: "O'ksiz o'z kindigin o'zi kesar", tegan..." [6]

"Temur tuzuklari" buyuk bobomizning jasoratlaridan biri edi. Muhtaram zotning ko'pdan ko'p davlat ishlari turgani holda, fursat topib, madaniyatimizning ko'rki bo'ladigan kitob yozishdek bir zahmatu mashaqqatni ham o'z zimmasiga olganligi hayratlanarlikdir. "O'zkindigin o'zi kesgan" Sohibqiron kitobini avlodlar uchun yozayotganini juda yaxshi angelaydi. Bu bejiz emas. Asrlar davomida asarning tillardan tillarga tarjima etilayotgani va keng tarqalayotgani, uning ustida turli tillarda tadqiqotlar olib borilayotgani "Temur tuzuklari" ning hayotiy va xaqqoniy original asarligini, in- soniyat uchun zarur ekanligini isbot qilib turibdi. Chunki Amir Temur yashagan davr, uning qizg'in faoliyati, mana salkam yetti yuz yil o'tayotirki, jahonda hech kimni befark qoldirmaydi, balki ohanraboday o'ziga tortadi, qiziqish esa tobora kuchayib bormoqda.

Hayotiy hikmatlarga to'la "Temur tuzuklari"ning noyob ma'rifiy obida ekanligidan tashqari, Amir Temur siymosi, sa'jiyasi, ruhiyati, tabiati, bir so'z bilan aytsak, boy shaxsiyati va insoniyliги haqida bergan ta'riflari juda muhimdir. Amir Temur "Tuzuklar"da adolatni himoya qilguvchi, so'zi bilan ishi bir, oliyjanob, kechirimli, dovyurak, ko'rkmas, zo'r tadbirlar sohibi, mohir sarkarda, ulug' rahbar sifatida namoyon bo'ladi.

U zolimlardan mazlumlar haqqini olishda jonbozlik ko'rsatadi, chunki yaxshi biladi: mamlakat kufr bilan turishi mumkin, ammo zulmga chiday olmaydi. Hokimlaru sipohdan qay birining xalkka jabr-zulm yetkizganini eshitsa, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'radi. Yaxshilarga yaxshilik qiladi, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshiradi... Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengashga qo'yadi, faqat bir ulushinigina qilichga qoldiradi. "...G'anim tomonidan bo'lgan navkar bizga qarshi qilich ko'targan bo'lsa, o'z yurtining tuzini halollagan bo'ladi," – deyiladi "Tuzuklar"da. Amir Temur fikricha, o'z yurtining tuzini

halollagan navkar, u dushman navkari bo'lsa ham, hurmatga sazovor! Chunki, u o'z yurtini himoya qildi! Biron navkar tuz haqi va vafodorlikni unutib, savashish vaqtida o'z sohibidan yuz o'girib, Amir Temur etagini tutmoqchi bo'lsa, Sohibqiron uni o'ziga eng yomon dushman deb biladi... Bular Sohibqironning eng tang vaziyatlarda ham adolat va insofni birinchi o'ringa qo'yishiga yorqin misollardir.

Sohibqiron ochiq yuzlilik, rahmu shafqat bilan xalqni o'ziga rom etishni yaxshi bilardi. Xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish, qo'rqitish, tushuntirish yo'li bilan undirishni tayinlardi. Hamisha raiyat ahvolidan ogoh edi, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rardi. Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohi doim ochiq edi. Hamisha adolatga talpinib yashar, jabru zulmdan uzoqroqda bo'lishga intilardi. Biron kimsaning hakki bo'lsa uni aslo unutmasdi. Hech kimdan o'ch olish payida bo'lmasdi. Ko'ngli buzuq, himmatsiz kimsalarni majlisiga aslo yo'latmas, balki majlislarida keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilar suhbatidan bahramand bo'lardi... Chinakam do'st haqidagi quyidagi so'zlar ham xalqimiz aql-idrokining teranligidan xabar beradi: "Chin do'st uldirki, – deydi Amir Temur. – Do'stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi..."

"Temur tuzuklari" ana shunday falsafiy umumlashmalar, hayotiy hulosalarga boy qomusiy asardir.

Tariximizning durdonalaridan birini xalq orasida keng targ'ibu tashviq etishda jonbozlik ko'rsatgan olimlarimizga minnatdorchilik bildirish o'rinlidir. Mustamlakachilik yillarida akademik I.Mo'minov "Tuzuklar"ning N.Ostroumov nashri (1894) faksimilesini e'lon qildirdi (1968), Alixontura Sog'unuy ushbu nodir asarni ona tilimizga tarjima qilib "Guliston" jurnalida (1967) chop etdirdi. Bu "Temur tuzuklari"- ning shurolar davrida amalga oshirilgan birinchi tarjimasi edi. Ushbu qadamlar Amir Temur nomi qatag'on qilingan davrlardagi chinakam jasorat namunalari sifatida qadrlanishga loyiqdir.

Mustaqillik yillarida "Temur tuzuklari"ni o'rganish, nafaqat asliyatda, balki boshqa tillarda ham chop etishda jiddiy ishlar olib borgan olimlarimizdan biri akademik Bo'riboy Ahmedov bo'ldi. U asarning 1991, 1996 yillar nashrlariga batafsil so'zboshilar yozdi, atroflicha izohlar ilova qildi...

Asomiddin O'rinboyev, Habibulla Karomatov, Hamidulla Karomatov, Ashraf Ahmedov, Omonulla Bo'riyev, Haydarbek Bobobekov, Halim Boboyev, Ahmadjon Quronbekov singari zahmatkash olimlarimiz ham ilmiy tadqiqotlar yaratdilar va tarjimalarini e'lon qildilar. O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirmkul Qodirovning bu boradagi sermazmun maqola va esselari o'quvchilarda katta qizikish uyg'otmoqda...

**Xulosa:**"Temur tuzuklari" ikki maqoladan iborat. Birinchi maqola Sohibqiron hayotining eng e'tiborli voqealaridan tashkil topdi, ular tarix hujjatlariga

aylanganliklari bilan qadrlidir. Qisqa, sodda, tushunarli tilda insho etilgan voqealar o'quvchilarning turli tabaqalariga birday anglashilardir. Muhimi, bu voqealar G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari singari ishonchli manbalardagi voqealarga mos keladi. Ikkinchi maqola esa davlat qonunlaridan, ya'ni tuzuklardan tashkil topdi. Bu tuzuklar saltanatning barpo bo'lish yo'lida, hayotning o'zi keltirib chiqargan hayotbaxsh qonunlar majmuasi ediki, ular bugungi kunda ham ulkan ahamiyatga egadir.

Birinchi maqola quyidagi so'zlar bilan yakunlanadi: "Yetti yillik yurishdan so'ng zafar va nusrat bilan Samarqandga qaytdim..." Bu sana milodiy 1404 yilning kuz oylariga to'g'ri keladi. Demak, buyuk obidamiz bo'lgan "Temur tuzuklari" ning yozilganiga olti yuz yil to'ldi. Bu madaniyatimiz tarixida katta hodisadir.

Sohibqiron qalami bilan insho etilgan "Temur tuzuklari" yoshlar qalbiga bemisl g'ypyp joylab, ularni chinakam inson qilib yetishtirishda, qo'rqmas va dovyurak, aqlli va vatanparvar sifatida tarbiyalashda bebaho bir maktab vazifasini ado etadi.

Bu maktabda hali ne-ne avlodlar saboq olishlariga aslo shubha yo'q.

#### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Temur tuzuklari [forschadan Alixonto'ra Sog'unliy va Habibulla Karomatov tarjimasini], T., 1991, 1996; Karomatov H., "Temur tuzuklari"ni O'zbekistonda o'rganish muammolari (Temuriylar davri madaniy yodgorliklari), T., 2003.
2. Temur tuzuklari. -T.: "Hilol mediya", 2018.
3. Temur tuzuklari. -T.: "O'zbekiston", 2018.
4. M.Sherov, B.Xaitov. Amir Temur tuzuklariga harbiy-siyosiy sharh. (Monografiya), - Chirchiq, 2021.
5. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan B.Ermatov tarjimasini. - T.: "O'zbekiston", 2020.
6. M.Rahimov, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi. -T.: "Fan", 2019.
7. Ubaydulla Uvatov. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. -T.: "Sharq", 1997.